Jahon medialandshaftining zamonaviy qiyofasidagi o'zgarishlar bevosita jurnalistika sohasidagi yangilanishlar, auditoriya media iste'moli talablarining o'zgarishi va axborot yetkazishda vaqt hamda geografik hudud kabi tushunchalar o'z o'rnini va ahamiyatini yo'qotishida aks etadi. Chunki dunyo media sanoati shu kunga qadar amalga oshirilgan fan va texnikaning barcha yutuqlaridan, jumladan, mexanizatsiyalashgan, avtomatlashgan va raqamli texnologiyalardan birinchilardan bo'lib foydalanib kelayotgan bo'lsa-da, bu sohada texnika taraqqiyotining hech bir yutug'i internetchalik burilish yasay olmadi.¹ "Internet resurslarining taqsimlash bo'yicha yagona markaz, shu jumladan, nazorat markazi yo'q"ligi esa yangi medialarning paydo bo'lishiga va qisqa vaqt ichida rivojlanishiga olib keldi.

¹ Leigh, J. The evolution of media landscape. 2017.

Natijada jahon medialandshafti matbuot, televideniye va radio kabi an'anaviy komponentlaridan tashqari yangi OAV turi – onlayn media bilan boyidi. “Digital media” (Raqamli media) yoki “Online media” (onlayn media) shaklida ham keng qo'llanilayotgan zamonaviy media tushunchasi “ilmiy akademizm nuqtayi nazardan hali bizda shakllanib ulgurganicha yo‘q”²ligi filologiya fanlari nomzodi A.Nurmatov tomonidan ta'kidlangan bo'lsa-da, ular qisqa vaqt ichida nafaqat jahon medialandshaftida, balki milliy medialandshaftda ham ilgari faqat mainstream media (an'anaviy OAV: matbuot, televideniye, radio)ga tegishli bo'lgan joyning katta qismini egalladi. Bu esa o'z navbatida global va lokal medialandshaftda yangi paradigmalarning shakllanishiga olib keldi. OAV fuqarolarning Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni amalga oshirishda muhim vosita vazifasini bajaradi. OAV tushunchasiga qonunchilik nuqtayi nazaridan to'xtaladigan bo'lsak, “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonunning 4-moddasiga ko'ra, ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan, qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.³

² Nurmatov A. Zamonaviy media nazariyalari. journal.fledu.uz №4/2019.

³ O'zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2007.

So'nggi paytlarda zamonaviy jurnalistika ilmida tez-tez murojaat etilayotgan "medialandshaft" tushunchasi "media" va "landshaft" so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, ilk marotaba amerikalik olimlar tomonidan qo'llanilgan. Ingliz tilida "media landscape" istilohini dastlab 1986-yilda amerikalik faylasuf, sotsiolog va antropolog Arjun Appaduray ilmiy iste'molga kiritgan⁴. Shu o'rinda mohiyatiga ko'ra bir-biridan ancha yiroq bo'lgan, ikki sohaga tegishli hisoblangan "media" va "landshaft" so'zlarining izohiga e'tibor qaratish lozim. Jurnalistika nazariyasiga "media" atamasining kirib kelishi Toronto kommunikatsiya nazariyasi maktabi (Toronto school of communication theory) va kanadalik professor-olim, faylasuf Marshall Maklyuen nomi bilan bog'liq. Olimning 1964-yilda yozilgan "Understanding Media: The Extensions of Man" (Mediani tushunish: odam dunyoqarashining kengayishi) nomli kitobi medianing ommaviy axborot vositasi sifatidagi ma'nosining keng tarqalishi sabab bo'lgan.

Ingliz tilidagi aksariyat lug'atlarda, jumladan Kembrij lug'ati⁵ (Cambridge Dictionary)'da "media" – lotincha so'z bo'lib, "medium" atamasi ko'plik shaklida ifoda etishi keltiriladi. Kollins lug'ati (Collins Dictionary)da esa mazkur so'zga "matbuot, televideniye va radio kabi ommaviy axborot vositalari" ma'nosini anglatuvchi tushuncha sifatida ta'rif beriladi. Mazkur lug'atdagi izoh shunisi bilan ham ahamiyatliki, unga ko'ra "media" so'zi video, musiqa, fotosuratlar va shunga o'xshagan kontentlarga nisbatan ham qo'llanilishi haqida ma'lumot berilgan. Kembridj lug'atida esa ommaviy kommunikatsiya vositalari ma'nosida qo'llanilganida "media" so'zi internetni ham anglatishiga urg'u beriladi. Ushbu

⁴ Jahon medialandshaftida so'z erkinligining yangi tendensiyalari: monografiya. M.B. Otamurodova - Toshkent, 2023.

⁵ Cambridge Dictionary. - URL: <https://dictionary.cambridge.org/>

manbalarga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, media tushunchasi nafaqat ommaviy kommunikatsiya vositalari, balki ular yaratadigan kontent manosida ham qo'llaniladi. Biz tadqiq etayotgan “medialandshaft” tushunchasida izohlanishi kerak bo'lgan yana bir so'z bu – “landshaft”dir. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida “landshaft” so'zi nemis tilida “land” yer, “schaft” manzara ma'nosini anglatishi haqida ma'lumot berilgan. Ushbu manbaga ko'ra, landscape tipologik tabiiy komplekslarni umumlashtiruvchi tushuncha: geologik zamini, relyefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumi, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan hudud.⁶ Yuqorida “medialandshaft” so'zini tashkil etgan ikki tushunchaning har birini alohida tahlil qilishga harakat qildik. Demak, media ommaviy kommunikatsiya vositalari va ularning kontentlarini nazarda tutsa va bu tushuncha tabiiy chegaraga ega bo'lgan hudud yoki joy ma'nosini anglatuvchi “landshaft” so'zi bilan birga qo'llanganda, ma'lum bir hududdagi ommaviy axborot vositalari, ularning axboriy mahsuloti, faoliyat qamrovini o'zida ifoda etuvchi makon, borliqni anglatadi. Tabiiy landscapelar bir-biridan iqlimi, tuproqlari, o'simlik turlari, hayvonot dunyosi va boshqa xususiyatlariga ko'ra farqlangani kabi har bir hududning medialandshafti ham komponentlarining xilma-xilligi, auditoriya qamrovi, kontent yaratish usullari va boshqalarga ko'ra bir-biridan ajralib turadi.

Biz yuqorida tilga olgan amerikalik olim o'zining “Zamonaviylik: globallashuvning madaniy o'lchovlari” (Modernity at large: cultural dimensions of globalization) kitobida “medialandshaft” tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: “Medialandshaft bu ommaviy axborot vositalari tomonidan yaratilgan dunyo

⁶ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T.: Davlat ilmiy nashriyoti.

bo'lib, axborot ishlab chiqarish va uni tarqatish bilan shug'ullanib, jamiyat va shaxs manfaatlariga xizmat qiladi. Ahamiyatli tomoni shundaki, medialanshaftda dunyo yangiliklari, siyosiy qarashlar, ijtimoiy hodisalar va umuman, auditoriya ehtiyoji uchun zarur bo'lgan media mahsulotlar aralashib ketadi"⁷. Demak, xususiyatlariga ko'ra axborot uzatishning asosiy vositalari bo'lgan, an'anaviy yoki zamonaviy media deb yuritiladigan matbuot, radio, televideniye, internet (yangiliklar saytlari, bloglar, vloglar) medialandshaftning tarkibini tashkil qiladi.

Sankt-Peterburg universiteti ilmiy tadqiqotchisi Yuy Syuju Appadurayning fikrlariga tayanib, medialandshaftni "ma'lum bir hudud, ya'ni mamlakat, viloyat, shahar va boshqalardagi OAVning dinamik yig'indisi" deb ta'riflaydi va bu media manzara "aholi soni va media iste'moli talablaridan kelib chiqqan holda shakllanishi"⁸ga alohida urg'u beradi. Tadqiqotchining qarashlari Appaduray nazariyasi asosida shakllangan bo'lishiga qaramay, mazkur tushunchaga nafaqat global miqyosda, balki kichik hududiy birliklar ko'lamida ham yondashish zarurligini taqozo etadi. Ya'ni Yuy Syuju medialandshaft tushunchasini viloyat, tuman yoki shahar miqyosida ham tadbiq etish mumkinligini aytib o'tadi. Bunda hududiy OAVning faoliyatini va ular hosil qiladigan mediamanzarani tushunish mumkin.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan global medialandshaft, aslida kichik-kichik hududiy medialandshaftlar-ning bir butun yig'indisidir. Shu ma'noda mamlakat medialanshaftini yaratish orqali uning mediamanzarasini takomillashtirish nafaqat OAV va shu soha vakillari uchun, balki axborotdan

⁷ Appadurai, A. Modernity at large: cultural dimensions of globalization - Minneapolis, Minn: University of Minnesota Press, 1996. P. 35

⁸ Цюжу, Ю. Современный медиаландшафт провинции Санкт-Синьцзян-Уйгурского автономного района. Петербург, 2018.

foydalanuvchilar uchun ham nihoyatda ahamiyatlidir. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakat medialandshafti – uning madaniy qiyofasidir. Milliy va mahalliy medialandshaftni yaratish, mamlakatda faoliyat olib borayotgan OAVning muhim tashkiliy, tuzilmaviy jihatlarini hisobga olib, uning kelajagini bashorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga jurnalistika sohasida tadqiqot olib borayotgan ilmiy izlanuvchilarga OAV haqida kerakli ma'lumot olishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR/LITEPATYPA/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari milliy bazasi. 2007.
2. Appadurai, A. Modernity at large: cultural dimensions of globalization - Minneapolis, Minn: University of Minnesota Press, 1996.
3. Nurmatov A. Zamonaviy media nazariyalari. journal.fledu.uz №4/2019.
4. Leigh, J. The evolution of media landscape. 2017.
5. Jahon medialandshaftida so'z erkinligining yangi tendensiyalari: monografiya. M.B. Otamurodova - Toshkent, 2023.
6. Cambridge Dictionary. - URL: <https://dictionary.cambridge.org/>
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T.: Davlat ilmiy nashriyoti.
8. Цюжу, Ю. Современный медиаландшафт провинции Санкт-Синьцзян-Уйгурского автономного района. Петербург, 2018.

**BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASINING INTELLEKTUAL MULK
TIZIMIDAGI HUQUQIY MUAMMOLARI: YURISDIKSIYA,
ISHONCHLILIK VA STANDARTLASHTIRISH MASALALARI**

Sharapova Rayhon Bekbergen qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Elektron pochta manzili: raykhonsharapova@gmail.com

***Annotatsiya:** blokcheynni intellektual mulk tizimiga joriy etishda uch muhim huquqiy muammo – yurisdiksiya, ishonchlilik va standartlashtirish – aniqlanadi. Tadqiqot milliy va xalqaro reyestrlar integratsiyasi, smart-kontraktlarning huquqiy maqomi hamda ISO/TC 307 tajribasi asosida olib borildi. Natijada, yagona semantik metadata, tranzaksiyalar holatini aniq belgilovchi yuridik normativlar va xalqaro shartnomalarga blokcheyn bo'limlari kiritilishi tavsiya etildi.*

***Kalit so'zlar:** blokcheyn texnologiyasi, intellektual mulk, yurisdiksiya, ishonchlilik, standartlashtirish, smart-kontrakt.*

**ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕХНОЛОГИИ
БЛОКЧЕЙН В СИСТЕМЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ
СОБСТВЕННОСТИ: ВОПРОСЫ ЮРИСДИКЦИИ, ДОВЕРИЯ И
СТАНДАРТИЗАЦИИ**

Шарапова Райхон Бекберген кизи

Магистратура Ташкентского государственного юридического университета

Адрес электронной почты: raykhonsharapova@gmail.com

***Аннотация:** выявлены три важные правовые проблемы при внедрении блокчейна в систему интеллектуальной собственности – юрисдикция, надежность и стандартизация. Исследование проведено на основе интеграции национальных и международных реестров, правового статуса smart-контрактов и опыта ISO/TC307. В результате было рекомендовано включение унифицированных семантических метаданных,*

правовых норм, четко определяющих статус сделок, и разделов о блокчейне в международные соглашения.

Ключевые слова: технология блокчейн, интеллектуальная собственность, юрисдикция, надежность, стандартизация, смарт-контракт.

LEGAL PROBLEMS OF BLOCKCHAIN TECHNOLOGY IN THE INTELLECTUAL PROPERTY SYSTEM: ISSUES OF JURISDICTION, TRUST AND STANDARDIZATION

Sharapova Rayhon Bekbergen qizi

Master's student of Tashkent State University of Law

E-mail address: raykhonsharapova@gmail.com

Abstract: three important legal problems are identified in the implementation of blockchain in the intellectual property system - jurisdiction, reliability and standardization. The study was conducted based on the integration of national and international registries, the legal status of smart contracts and the experience of ISO/TC307. As a result, it was recommended to include unified semantic metadata, legal regulations that clearly define the status of transactions, and blockchain sections in international agreements.

Keywords: blockchain technology, intellectual property, jurisdiction, reliability, standardization, smart contract.

Blokcheyn texnologiyasini intellektual mulk (IP) tizimiga joriy etishda yuzaga keladigan huquqiy murakkabliklarning uch asosiy yo'nalishi – yurisdiksiya, ishonchlilik va standartlashtirish – zamonaviy IM boshqaruvidagi eng dolzarb masalalarni tashkil etadi. Quyida ushbu masalalar atrofida olib borilgan amaliy izlanishlar, yuridik normativ-huquqiy hujjatlar hamda mamlakatimizda sinovdan o'tkazilgan pilot-loyihalar misollarida blokcheynning IM sohasidagi

huquqiy muammolari yoritiladi. Matn davomida izohlar orqali manbalar keltiriladi va menimcha degan mulohazalar bilan shaxsiy tahlillar o'rtasida uzviy bog'lanish yaratishga harakat qilinadi.

Blokcheynning transchegaraviy xarakteri IP huquqlarini ro'yxatga olish va ularni himoya qilish masalasida qaysi yurisdiksiya qoidalari amal qilishini aniqlashni murakkablashtiradi. An'anaviy huquqiy muhitda tovar belgisi yoki patent uchun bitta milliy reestr, ba'zan esa bir nechta xalqaro registr mavjud bo'lsa, blokcheynda bunday cheklov bo'lmay, o'sha tarmoq ishtirokchilari joylashgan joyga qaramay, bitta umumta'rif reestr shakllanadi. Shu bois, sud yoki arbitraj nizolarida yirik xalqaro brend egalari va mustaqil innovatorlar uchun qaysi mamlakat qonuni va qaysi sud organi o'z vakolatini tan olishini belgilash zarurati tug'iladi. Masalan, UNCITRALning Elektron tijorat to'g'risidagi Model qonuni ustiga blokcheyn tranzaksiyalarini kiritish imkoniyati haqida bir qancha izlanishlar olib borilgan¹. Menimcha, bu model qonunni O'zbekiston sharoitiga moslashtirib, blokcheyn-tranzaksiyalar uchun alohida modifikatsiyalar kiritish IP nizolarni hal etishda yagona asos bo'lib xizmat qilar edi.

Yurisdiksiya muammolari. Blokcheynning markazlashmagan tabiati an'anaviy huquqiy tizimlar uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltiradi. Chunki blokcheyn platformasi odatda bir mamlakat hududi bilan chegaralanmaydi – u global tarmoqda faoliyat yuritadi. Bu esa quyidagi savollarni tug'diradi:

Qaysi yurisdiksiya mas'ul? An'anaviy huquqiy amaliyotda da'vo arizasi – ayblanuvchi joylashgan hududda ko'rib chiqiladi. Lekin, agar platforma butun dunyoda faol bo'lsa va undagi tugunlar (nodes) turli mamlakatlarda joylashgan

¹ UNCITRAL, "Model Law on Electronic Commerce," 1996.

bo'lsa, qaysi davlat sudida da'vo ko'rib chiqilishi kerak? Masalan, AQSh Federal sudlari **Zippo test** va **“minimum contacts”** tamoyiliga tayanib, internetda faoliyat yurituvchi subyektlar ustidan yurisdiksiyani asoslaydi².

Huquqni tanlash. Xalqaro xususiy huquq normalariga ko'ra, shartnomaviy yoki tortishuvli huquqiy munosabatlar yuzaga kelganda, tomonlar shartnoma orqali amaldagi huquqni belgilab olishlari kerak. Lekin ko'plab blokcheyn tizimlarida an'anaviy shartnoma mavjud emas – ular smart-kontrakt asosida ishlaydi. Bu esa huquqiy munosabatlarning bevosita aniqlanishini qiyinlashtiradi³.

Uchrashuvsiz sud yuritish ehtiyoji. Blokcheyn asosidagi nizolar ko'p hollarda an'anaviy sud tizimida ko'rib chiqish uchun qiyinchilik tug'diradi. Bu esa arbitraj yoki **onlayn nizolarni hal qilish (ODR)** tizimlarining ahamiyatini oshiradi⁴.

Ishonchlilik. Blokcheyn texnologiyasining yadro tamoyili – o'zgartirib bo'lmaydigan (immutable) va vaqt muhri (timestamp) bilan tasdiqlangan tranzaksiyalarni saqlashdir. Bu imkoniyatlar, ayniqsa, IM obyektlari (rasmlar, patentlar, dasturiy ta'minotlar va h.k.) yaratilgan sanani ishonchli tarzda tasdiqlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq quyidagi muammolar mavjud:

Blokcheyndagi yozuvning huquqiy kuchi. Agar yaratilgan asar yoki tovar belgisi blokcheynga kiritilgan bo'lsa, bu yozuv sudda dalil sifatida tan olinadimi? Ayrim yurisdiksiyalarda, masalan AQShda, **Electronic Signatures in Global and National Commerce Act (2000)** va **UETA (1999)** qonunlariga ko'ra, raqamli

² Zippo Manufacturing Co. v. Zippo Dot Com, Inc., 1997

³ Savelyev, A. (2017). Contract law 2.0: Smart contracts as the beginning of the end of classic contract law. *Information & Communications Technology Law*, 26(2), 116-134.

⁴ Katsh, E., & Rabinovich-Einy, O. (2017). *Digital justice: Technology and the internet of disputes*. Oxford University Press.

yozuvlar huquqiy kuchga ega⁵. Biroq ko‘plab mamlakatlarda bu boradagi normativ hujjatlar yetarli emas.

Smart-kontraktarning huquqiy maqomi. Smart-kontraktlar – bu avtomatlashtirilgan algoritmik shartnomalar bo‘lib, ular blokcheynda bajariladi. Lekin bu kontraktlar an‘anaviy huquqiy shartnoma talablari (ixtiyoriylik, o‘zaro rozilik, aniq predmet, muvofiqlik)ga mos keladimi – bu masala hal etilmagan.

Standartlashtirish. Blokcheyn texnologiyasi IM sohasida keng qo‘llanilayotganiga qaramasdan, texnik va huquqiy standartlarning yo‘qligi ushbu texnologiyaning keng miqyosda tan olinishi va ishlatilishini cheklaydi.

Texnik standartlar yetishmasligi. IM ma’lumotlarining formatlash, kodlash va blokcheynga joylashtirish standartlari yo‘q. Shuningdek, litsenziyalash va royalti tizimlarini qo‘llashda umumiy protokollar mavjud emas.

Huquqiy standartlar va tartibga solishning fragmentatsiyasi. Xalqaro miqyosda blokcheynning IM sohasidagi qo‘llanilishi bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emas. AQSh, Yevropa Ittifoqi, Singapur, Yaponiya va Xitoyda farqli normativ yondashuvlar mavjud⁶.

ISO tashabbuslari. **ISO/TC 307** texnik qo‘mitasi blokcheyn va tarqatilgan reyestr texnologiyalari uchun xalqaro standartlarni ishlab chiqmoqda. Bu tashabbus texnologiyaning barqaror ishlashini ta’minlashi mumkin, lekin huquqiy muvofiqlik masalasi hamon ochiq qolmoqda. Standartlashtirish masalasida hozirgi kunda ISO/TC 307 komissiyasi tomonidan qabul qilingan ISO 22739:2020 standarti –

⁵ Svantesson, D. J. B. (2019). *Solving the Internet Jurisdiction Puzzle*. Oxford University Press.

⁶ OECD. (2020). *Blockchain and competition policy*. OECD Publishing.

“Blockchain and distributed ledger technologies – Vocabulary” – kabi xalqaro normativlar mavjud⁷. Lekin IP boshqaruvi nuqtai nazaridan blokcheyn tranzaksiyalarini semantik jihatdan birdek talqin etuvchi formatlar ishlab chiqilmagan. Bu esa, misol uchun, milliy IP reestrda “brand_owner” maydoni sifatida saqlanadigan qiymatni blokcheyn zanjiridan olib kelishda mos kelishmasliklarga olib keladi. Menimcha, WIPOning “Global IP Blockchain Hub Initiative” tashabbusi⁸ doirasida bunday meta-standartlarni ishlab chiqib, ularni mintaqalararo hamkorlik shartnomalariga kiritish lozim.

Xalqaro tajriba: Blokcheyn va intellektual mulkni huquqiy tartibga solishdagi yondashuvlar. Blokcheyn texnologiyasining intellektual mulk sohasida qo'llanilishi turli mamlakatlarda har xil yondashuvlar bilan tartibga solinmoqda. Quyida bir necha ilg'or davlatlar tajribasi tahlil qilinadi.

AQShda intellektual mulk huquqlarining raqamli shaklda hujjatlashtirilishi keng tarqalgan. “Blockchain Copyright Registry” kabi platformalar mualliflik huquqlarini tasdiqlash uchun blokcheynni qo'llaydi. Smart-kontraktlar AQSh fuqarolik huquqida shartnoma deb tan olinishi mumkin, agar ular asosiy shartnoma elementlarini o'z ichiga olsa⁹.

Bundan tashqari, AQSh Patent va Tovar Belgilari Byurosi (USPTO) blokcheyn texnologiyasining patentga arizalar topshirish va huquq monitoringida qanday rol o'ynashi mumkinligi bo'yicha tahliliy hisobotlar chiqarmoqda¹⁰.

⁷ ISO/TC 307, “ISO 22739:2020 Blockchain and distributed ledger technologies — Vocabulary,” 2020.

⁸ WIPO, “Global IP Blockchain Hub Initiative,” 2022.

⁹ ABA. (2019). *Understanding smart contracts*. American Bar Association. https://www.americanbar.org/groups/business_law/publications/blt/2019/05/smart-contracts/.

¹⁰ USPTO. (2020). *Public Views on Patents and Blockchain Technology*. <https://www.uspto.gov>.

Yevropa Ittifoqi. YI “Digital Single Market” tashabbusi doirasida blokcheyn asosida ishlaydigan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazish tizimlarini rag‘batlantiradi. “IPR Helpdesk” tashabbusi doirasida mualliflar va dizaynerlar uchun raqamli huquq boshqaruvi tizimlari ishlab chiqilgan.

YI shuningdek, “Blockchain Observatory and Forum” orqali blokcheyn texnologiyasining IM huquqlarini himoya qilishdagi imkoniyatlarini tahlil qiladi. Biroq YI doirasida blokcheynga oid huquqiy maqom va yurisdiksiya masalalari hali ham aniq standartlarga ega emas¹¹.

Yaponiya blokcheyn texnologiyasini rivojlantirish bo‘yicha juda faol yurisdiksiyalardan biri hisoblanadi. Yaponiya Intellektual mulk agentligi (JPO) 2020-yilda blokcheyn asosida patent, dizayn va mualliflik huquqlarini boshqarish mexanizmlari haqida maxsus tadqiqot o‘tkazdi¹².

Singapur IM huquqlarini raqamli muhitda muhofaza qilish uchun “IPOS Go” mobil ilovasini ishlab chiqdi, bu huquqlarni blokcheynga integratsiyalashgan tizimda saqlash imkonini beradi. Singapur xalqaro arbitraj markazi blokcheyn asosida tuzilgan smart-kontraktlar asosida yuzaga kelgan nizolarni hal qilish imkonini beruvchi qoidalarini ishlab chiqmoqda¹³.

O‘zbekiston sharoitida muammo va imkoniyatlar. O‘zbekiston Respublikasi raqamli transformatsiya sohasida jadal rivojlanayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, fintech,

¹¹ European Commission. (2021). *Blockchain strategy for Europe*. <https://ec.europa.eu/digital-strategy/our-policies/blockchain>.

¹² JPO. (2020). *Report on Blockchain Utilization in IP*. Japan Patent Office.

¹³ SIAC. (2021). *Technology arbitration rules and innovations*. Singapore International Arbitration Centre.

sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha bir qancha strategik hujjatlar qabul qilindi. Shunga qaramay, **blokcheyn texnologiyasining intellektual mulk tizimi bilan uzviy integratsiyasi** hali to'liq shakllanmagan. Quyida ushbu yo'nalishda mavjud holat *huquqiy va institutsional* darajada tahlil qilinadi:

- Intellektual mulk huquqi qonunchiligi mualliflik huquqi, patentlar, seleksion yutuqlar, tovar belgilarining himoyasini belgilaydi. Biroq qonunchilikda raqamli vositalar orqali huquqni ro'yxatdan o'tkazish yoki blokcheynga kiritilgan huquqlar to'g'risida biror norma mavjud emas. Bu esa yangi texnologiyalarning amalda tan olinmasligiga sabab bo'lmoqda.

- **“Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi Qonun (2004)** – elektron hujjatlarning qonuniy kuchga egaligini belgilaydi. Lekin qonunda blokcheyn texnologiyasiga xos atributlar – vaqt muhri (timestamp), tarqatilgan reyestr (DLT), smart-kontrakt va xesh identifikatorlar (hash ID) haqida hech qanday izoh berilmagan. Shu sababli, blokcheynga asoslangan hujjatlarning sudda dalil sifatida qabul qilinishi ochiq masala bo'lib qolmoqda.

- **“Raqamli O'zbekiston – 2030”** strategiyasining 2.4-bandida blokcheyn texnologiyasi alohida yo'nalish sifatida ko'rsatilgan bo'lsa-da, u asosan moliyaviy xizmatlar, logistika va davlat xizmatlari bilan bog'liq. Intellektual mulk tizimi bilan integratsiyalashga oid aniq chora-tadbirlar rejalashtirilmagan.

- **O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi** – shartnomaviy munosabatlar, mualliflik huquqi va mulk huquqlariga oid normalar mavjud. Biroq smart-kontraktlar yoki algoritmik shartnoma kabi yangi shakllar kodeksda umuman ko'zda tutilmagan.

Amaliy muammolarga to'xtaladigan bo'lsak,

- **Online ro'yxatga olish tizimining yo'qligi** – hozirda intellektual mulk obyektlarini, xususan mualliflik huquqlari va patentlarni onlayn tarzda ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati mavjud emas. Bu esa huquqlarni tasdiqlash va nizolar yuz berganda isbotlashni murakkablashtiradi.

- **Blokcheyn asosidagi IM reyestrlari yaratilmagan** – Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazida blokcheyn asosida yuritiladigan ro'yxatlar, identifikatorlar yoki QR-kodlar orqali himoya tizimi mavjud emas. Bunday platformalar nafaqat himoya, balki litsenziyalash va nazoratni avtomatlashtirish imkonini beradi.

- **Sud amaliyoti va huquqiy baholash mexanizmlarining shakllanmaganligi** – ayni paytda O'zbekiston sudlarida blokcheyn asosida tuzilgan shartnomalar, ro'yxatlar yoki yozuvlardan foydalanilgan holatlar amaliyotda deyarli yo'q. Sud amaliyoti va ekspertiza tizimida raqamli yozuvlarning ishonchliligini aniqlash metodologiyasi ishlab chiqilmagan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, blokcheyn texnologiyasi o'zining texnik imkoniyatlari bilan intellektual mulk huquqlarini boshqarish, himoya qilish va huquqiy da'volarni soddalashtirishda inqilobiy vosita bo'lishi mumkin. Xususan:

- U asarning yaratilgan vaqtini isbotlashga;
- Huquq egasini aniqlashga;
- Smart-kontraktlar orqali avtomatik royalti to'lovlarini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin.

Biroq hozirda O'zbekistonda bu imkoniyatlar huquqiy tartibga solinmagan. Qonunchilikda blokcheyn va smart-kontraktlarning maqomi noma'lum, sudlar esa

ularni dalil sifatida qabul qilishga tayyor emas. Shu sababli, qonunchilikni yangilash, tajriba almashish va texnik infrastrukturani yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Blokcheynning huquqiy maqomini aniqlashtirish, smart-kontraktarning tan olinishi, blokcheyn asosidagi IM registrini yaratish hamda mazkur sohadagi ilg'or davlatlar – Singapur, AQSH, Estoniya kabi davlatlar, shuningdek, ISO/TC 307 texnik qo'mitasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish orqali tizimdagi kamchiliklarning bartaraf etilishiga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun. Tashkent, 2004, 24 iyun.
2. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
3. Anderson M., "Smart Contracts and the Law", Journal of Technology Law, 2020, Vol. 12, No. 2, 78–85 betlar.
4. Sabirov U., "Blokcheyn texnologiyalarining intellektual mulk sohasidagi huquqiy muammolari", Huquqiy fanlar jurnali, 2021, № 3, 45–53 betlar.
5. United Nations Commission on International Trade Law (UNCITRAL). "Model Law on Electronic Commerce with Guide to Enactment". Vienna, 1996.
6. Electronic Signatures in Global and National Commerce Act (ESIGN). Amerika Qo'shma Shtatlari, 2000.

7. Uniform Electronic Transactions Act (UETA). Amerika Qo'shma Shtatlari, 1999.
8. International Organization for Standardization (ISO). ISO 22739:2020 – Blockchain and distributed ledger technologies – Vocabulary. Geneva, 2020.
9. <https://www.wipo.int/>.
10. <https://www.wto.org/>.